

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-4/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.	Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.	Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.	Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.	Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Аимбетов Нағмет Қаллиевич, и.ф.д., акад.	Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.	Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.	Рўзметов Дилиод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.	Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.	Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.	Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.	Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.	Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.	Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.	Собитов Ўлмасбой Тожахмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.	Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.	Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., акад.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.	Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.	Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Қаландаров Назимхон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.	Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Каримов Улўзбек Темирбаевич, DSc	Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.	Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.	Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.	Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.	Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.	Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.	Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.	Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
Мирзаева Гулнора Саидарифовна, б.ф.д.	Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.
Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/3 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 256 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

Bekjanova S. Tibbiyot oliy talim muassasalari talabalarida divergent tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	143
Bolbekov E.A. Talabalarning sog'lom turmush tarzi mazmunini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish	145
Bolieva R.Kh. Study of the characteristics of changes in the mental states of students during the session	148
Davletov R.M. Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini dasturlashga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati	151
Djumanioyova E.Q. Formation of students' communication skills in english lessons	154
Eshkobilova F.U. Ingliz va o'zbek bolalarining o'xshash yoki noo'xshash motivli hamda obrazli o'yinlari	157
Jabborov Sh.U. Cognitive linguistic approaches to second language acquisition: insights and applications	160
Jamolova Z., O'rinboeva X.M. Maktablarda vazifaga asoslangan ta'lim (TBLT) orqali tillarni o'qitish	163
Jo'rayeva M.R. Kompetensiya, kommunikativ kompetensiya atamalarining ifodalanishi	165
Kazakova D.G. Influence of learning styles on education	169
Kuttibekova G.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga tayyorlash	172
Kuzibayeva M.M. Talabalarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash usullari tajribasidan	174
Kuzibayeva M.M. Oliy ta'limda talaba-yoshlarning vatanparvarlik tuyg'ularini takomillashtirish	177
Masharipova B.E. Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarni innovatsion qisqa muddatli kurslar orqali o'qitishning dolzarbligi	179
Maxammadiyev A.Sh., Abramotov M.B. "Ekotizim va ularning tasniflanishi" mavzusini o'qitishning interfaol usullari	183
Maxmutaliyeva M. Syllabus designing for ESP students	186
Melikuzieva G. Principles of materials development in English language teaching	189
Meyliyeva Sh.E. Using shadowing effectively to improve learners' listening comprehension in EFL classroom	191
Muratova N.B. The role of reading skills in the development of critical thinking	194
Nabieva Kh.A. Teaching english for children with special educational needs	197
Namazova M.U. "Insoniy fazilatlar hayotimiz ko'rki" mavzusida insho, matn yozish asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalalari	200
Niyazova M.Kh., Tuxtayeva M.A. Said Ahmadning asarlarida frazeologik birliklar tahlili	202
Norqulov B.X. Chet tili o'qitish metodikasining yaqin fanlar bilan bog'liqligi va uning asosi	205
Oblaqulova D.J., Ibragimov N.T. Main difficulties of learning English grammar	207
Qodirova D. Ijodiy yondashuv asosida talabalarning fransuz tilida nutqini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari	210
Rahmatova Z.M. Xorijiy talabalar uchun o'zbek tili darslarida o'yin texnologiyalarining ahamiyati	213
Raximova S.Dj. Iboralarni o'qitishda innovatsion yondashuv	215
Sagdiyeva G.J. Pragmatic aspects of english teaching and learning	217
Sharapova G.Sh., Rasulova M.I. Learning styles and experiential learning theory	220
Tairov I.Yo. Jamiyat ma'naviy yangilanishida milliy – ma'naviy meros modernizatsiyasi	223
Turg'unova R.P. Prospects for the development of leading higher education institutions: gender perspective	225
Tursunxodjayev J.J. Non-traditional ways of teaching vocabulary in foreign language lessons	228
Umarova G.A. Filologik yo'nalishdagi talabalarga jarayonli yozishni o'rgatish va yozishga doir vazifalar	231
Xalilova S.Z. Teaching methods and techniques for building a strong vocabulary in adult English as a Foreign Language (EFL) learners	233
Xusanova M.A., Ahmadjonova F.A. Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xosligi	236
Xushvaqtova E., Hamdamova Ch. Oliy ta'lim muassasalarida xitoy tilini o'qitishning dolzarb metodlari	239
Yoqubova N.N. Improving the quality of the lesson in higher education and the role of its professor-teachers	242
Дадахонова З.М. Современные технологии контроля знаний учащихся	245
Ниязова Х.Х. Время, как ценность в пословицах и поговорках при обучении начальных классов	247
Сафарова З.Т. Жисмоний тарбия дарсида халқ ҳаракатли ўйинларини қўллаш ва фанлараро боғлиқликнинг физиологик афзалликлари	249
Холматова Д.А. К вопросам изучения русского языка	253

- Erdin so'z unar, enchi bo'z hunar.

Agar shu egallangan san'at-yaxshi so'zlash orqali kimlargadir ijobiy ta'sir eta olsak, shu ruhda yosh avlodni tarbiyalay olsak, albatta, bu nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Esse yozish uchun avvalo mavzuni keng o'rganish lozim. Berilayotgan muammoning mohiyatini tushuntirib unga kerakli misollar, dalillar keltirish maqsadga muvofiq. Esse yozish davomida yozayotgan uslub hamda individuallik masalasiga alohida ahamiyat berish zarur. Shu o'rinda pedagoglarga quyidagilarni tavsiya etaman:

- ham ma'nan, mazmunan mos keluvchi manbalarni o'quvchiga jamlatish.

- yozma ishlarning ixcham mazmunli kasb etishini ta'minlash;

- mavzuga ijodiylik ruhini singdirishga o'rgatish;

- yozma ishlarda sitatalardan, maqol, hikmatli so'zlar, hodisalardan o'rinli foydalanishga o'rgatish.

- husnixatning savodxonligi hamda chiroyliligini ta'minlash.

Mavzuga doir bo'lgan esse yozishda bilim, tajriba, so'z boyligi, ifoda qobiliyati hamda muammoga to'g'ri yechim bera olish qobiliyati juda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan amallarga rioya qilinganda biz tarbiya qiladigan yosh avlod so'zamol, savodxon hamda kamol topgan inson bo'lib yetishmog'iga hech qanday shubha yo'q. Zero, hozirgi davr zamonaviy pedagoglari oldida turgan asosiy vazifa ham shundan iboratdir.

Xulosa. Insoniylik fazilatlarini sanasa soni ko'p ularni o'z o'rnida va o'zbekona chiroy bilan bajarilsa hamisha insoniyat rivojlanadi shu bilan bir qatorda insonlardan ezgu amal, ezgu so'z kabi jihatlari avlodlarga meros qoladi.

“Esse esa erkin kompozitsiya asosiga quriladigan, tuzilish jihatdan ixcham nasriy asar bo'lib, badiiy-publitsistik janrning kichik bir turi. Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish. Essening maqsadi - o'quvchini faol va tanqidiy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish, o'z mulohazalarini dalillashga yo'naltirish, til unsurlaridan o'rinli foydalanish orqali fikrni to'g'ri yetkazib berish ko'nikmalarini shakllantirish. Esse yozish o'quvchilarga o'z fikrini erkin bildirishga, mavzuga aloqador ma'lumotni to'g'ri qabul qilishga va tushunishga, muammoning yechimini topishga aloqador dalillardan foydalanib, o'z xulosasini aniq va savodli bayon etishga imkon yaratadi. Asosiysi, keltirilgan fakt va dalillarning o'rinli qo'llanishidir”[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ona tili –6 –sinf darsligi. Iroda Azimova, Klara Mavlonova Sad'ullo Quronov, Sholir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. –Toshkent, 2022.

2. Ziyodova T. U. Matn yaratish texnologiyasi. Monografiya. – T.:Fan, 2008.- 160 b.

3. Bekniyazova N.I. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi. Monografiya. – T., 2012.

4. Yo'ldoshev R. A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. -T.: Fan va texnologiyalar, 2019.

UO'K 808.5

SAID AHMADNING ASARLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

M.Kh.Niyazova, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.A.Tuxtayeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi adabiy muhitda, aynan Said Ahmad ijodida maqollarni qo'llashning o'zigaa xos ahamiyati borasida fikr yuritilgan. Maqolada Said Ahmadning asarlarida qahramonlar nutqida qo'llangan maqollar asos qilib olingan. Ushbu yozuvchining uslubi badiiy asar qahramonlari tilidan aytilgan maqollar orqali tahlil qilinib, qissadan keltirilgan parchalar yordamida ochib berilgan

Kalit so'zlar: ta'sirchanlik, Said Ahmad, maqol, personaj, nutq, xalq og'zaki ijodi.

Аннотация. В данной статье рассматривается особая значимость использования пословиц в современной литературной среде, конкретно в творчестве Саида Ахмеда. Статья основана на пословицах, используемых в речах героев произведений Саида Ахмеда. Стиль этого писателя анализируется через пословицы, произнесенные персонажами художественного произведения, и раскрывается с помощью отрывков из повести.

Ключевые слова: *аффективность, Саид Ахмед, пословица, персонаж, речь, фольклор.*

Abstract. *This article discusses the special importance of using proverbs in the current literary environment, namely in the works of Said Ahmad. The article is based on the proverbs used in the speeches of heroes in the works of Said Ahmad. The style of this writer is analyzed through proverbs spoken by the characters of the work of art, and revealed with the help of excerpts from the story.*

Key words: *affectivity, Said Ahmad, proverb, character, speech, folklore.*

O'zbek adabiyotshunosligi yorqin namoyondalaridan bir bo'lmish Said Ahmad ijodini ham tahlil etadigan bo'lsak, uning kulgi yaratishda xalq og'zaki ijodining janrlaridan, vositalaridan, obraz yaratish usullaridan samarali foydalanganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Xalq orasidagi afsonalar, rivoyatlar, qiziqarli voqealar, donishmand, jasur qahramonlar yozma adabiyotga o'zining ta'sirini o'tkazib keldi va uning poetikasini boyitdi, tasvirda dinamikani kuchaytirishda, qahramonlarning yorqin obrazlarini yaratishda yordam berdi va biz buni Said Ahmadning bir qator asarlarida aksini ko'ra olamiz.

Xususan, "*Qirq besh kun*" asarida xalq polvonlari obraziga keng o'rin berilganki, bu yozuvchi ijodining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi bir dalildir. Adabiyotimizda birinchilardan bo'lib, Said Ahmad xalq polvonlarining yorqin obrazini yaratdi, ularning ruhiyatini ochib berishga harakat qildi. Asarda xalq polvonlarining so'zlari, harakatlari komik vaziyatlarda tasvirlangan, ularning tilidagi, ruhiyatidagi muhim xususiyatlar yetarlicha ochib berilgan. Ayniqsa, Esh polvon obrazi asarda o'ziga xosligi, ruhiy olamining rang-barangligi, murakkabligi bilan to'g'ri va real tasvirlangan. Yozuvchi polvonlarning kurash tushish epizodi tasvirida xalq kulgisidan, qochiriqlaridan, maqollardan mohirlik bilan foydalandi, polvonlarning badiiy nutqlari ularning xarakteriga mos tarzda ifodalangan. Ularning chapanilarga xos so'zlari xarakterlari uchun mosdir: "*Bir jag'ini ezib qo'y bu tirranchani. Chirarmoqlik qilyapti. Buzoqning yugurgani somonxonagacha. Ikkinchi kurash tushmaydigan qilib, belini qirsillatib qo'y.*"

Said Ahmad kulgi yaratishda xalq maqol, matallaridan ham ustalik bilan foydalanar ekan, bunda u ikki xil usulni qo'llaydi:

1. Xalq maqollaridan turli obrazlar xarakterini ochishda foydalanish:
2. Ulardan ilhomlanib yangi aforizmlar yaratish.

Yozuvchi xalq boyligining bu chashmasidan ham o'ziga xos oziqlanadi. U ishlatgan aforizmlar asar g'oyasini, xarakterlarning u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qiladi. Maqollar xalqning dunyoqrashini, jamiyatga, tabiatga munosabatini, ruhiy holatini ifodalab kelgan. Said Ahmad hajviyotlarida mazmun jihatdan xilma xil maqollar uchraydi. U har bir maqolni vaziyatga, qahramonlar holatiga mos ravishda ishlatadi. Maqollar obrazlarni, xarakterlarni yorqinroq ochish, ularga satirik yoki yumoristik bo'yoq berish, kishilarning voqea-hodisalarga munosabatini ifodalash, asar g'oyasini, tilini boyitish kabi maqsadlarda ishlatiladi.

Yozuvchi ba'zi maqollarni qahramonlar nutqida kinoya tarzda, hajv usulida qo'llaydi. Maqollarning satirik kuchi personajning haqiqiy basharasini ochishga yordam beradi. Har bir personaj tilidan berilayotgan maqol yoki matallar uning u yoki bu munosabat bildirayotgan obyektiv yaxshi yoki yomon xususiyatni ifodalashga xizmat qiladi: O'lgudek qurumsoq Inoyat oqsoqol nutqida uchraydigan maqol yoki matallar uning satirik xakteri uchun mos. "Oziqlik ot horimas", "Nafsini tiygan uzoqqa boradi" yana xalqda "Nafsi buzuq hayitda o'ladi" maqoli ham bor, "Toma toma ko'l bo'lur", "Bugun bir burda tejasang, ertaga noning ikki burda bo'ladi", "O'lgan o'lib ketaveradi, qolganga qiyin" kabi matal, maqol va obrazli iboralar uning xasislik ruhiyatini ochishga xizmat qiladi va o'z-o'zini fosh etishga yordam beradi. Bunday lavhalarda maqol va matallar satirik mohiyatga ega. Biroq "Oziqlik ot horimas", "Toma-toma ko'l bo'lur" kabi maqollarni matndan alohida olib qaralganda ijobiy mazmunga ega. Shunga qaramay, ziqna chol oqsoqol tiliga ko'chganda uning xarakterini, ruhiyatini ochib beruvchi yordamchi vosita bo'lib keladi.

Asardagi ba'zi maqollar voqea-hodisalarga kulgi munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Shuning uchun ular bevosita kulgi unsurlarini qo'zg'atishga moyil: "*Mitti demang bizni, ko'tarib uramiz sizni*", "*Chumchuqdan qo'rqan tariq ekmaydi*" kabi maqollarda yumoristik bo'yoqlar kuchli. "*Tanacha ko'zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi*", "*Ola qarg'aning yurishini qilaman deb*

chumchuqning buti yirtilgan ekan”, “*Qarqunoqdan chiqqan bulbul*” kabi ba’zan ba’zan kinoyali, ba’zan nishli maqollar o’zida xalq satirasi va yumorining turli xil ma’nolarini jamlagan. Said Ahmadning “*Kelinlar qo’zg’oloni*” komediyasidagi paremalarnio’rganish jarayonida asardagi Farmonbibi va uning har ikki gapga maqol qo’shib gapiradigan kelini Bashorat nutqini tahlil qilamiz:

“Bashorat. Mana, oyijon.

Farmon. (Bashoratga) Kam-ko’stingni ayt. Nima kerak?

Bashorat. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek,...

Farmon. (gapini bo’lib) Maqol qo’shmay gapir. Maqol ham o’lsun, bo’lar-bo’lmasga suqulmay.

Bashorat. Maqol so’z ko’rki, o’zingizdan qolar gap yo’q. Do’st boshga, dushman oyoqqa qaraydi, deganlaridek, tuflimning rangi o’chib, tumshug’i yalpayib ketibdi.

Farmon. Usta Boqi o’lgurga to’g’rilatib bersam bo’lmaydimi?

Bashorat. Eskini yamasang, esing ketadi, deganlaridek... Yetti marta tagiga charm qoqib bergan.

Farmon. (Sottiga) Yoz. Tuflini deb yoz. Yana nima kerak?

Bashorat. Yegan og’iz uyalar. Qudachilik ming yilchilik, o’zingiz bilasiz, bitta-yu bitta qizim. Ko’zimning oq-u qorasi, haligi, qudalarimni bir chaqirsam degandim.

Farmon. Quda, quda. Qudangni tinch qo’y. Bunaqada boshingga chiqarib qo’yasan. Ular ko’p ziyofatimizni yeyishgan. Sarpolarni to’qqiz-to’qqiz qilib kiyishgan. Qiz uzattingmi, endi jim o’tir. Bo’ldi, ketaver.

Bashorat. Yuzga aytganning zahri yo’q, Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim, qo’ying oyi. Ziqnaligingiz jonimga tegdi. Ro’zg’orimni bo’lak qilib bering yo javobimni bering”.

Ushbu matnda Bashoratning nutqida sakkizta xalq maqoli keltirilgan. Xalqona iboralardan ham foydalanilgan. Yozuvchi bu vositalar orqali asar qahramonlari nutqini ta’sirchan bo’lishiga erishgan.

Asarda Farmonbibi xarakterini yorqin tasvirlash maqsadida yozuvchi ko’plab maqol va iboralardan foydalanganini kuzatish mumkin:

“Muhayyo. Ovsiningiz xiylacha bor. Ayamga osonlikcha jilovini tutqazib qo’ymaydi.

Lutfi. Shundoq deysiz-u o’zimdand qiyos. Kelganimda tiprotikonga o’xshab hurpayib, duch kelganga ignamni sanchardim

...

Muhayyo. Oyim tipratikonni teskarisini silab, uxlatadiganlardan.

Bashorat. Zo’rdan zo’r chiqsa, zo’r bo’ynini qisar.

Shunday qilib, Said Ahmad maqol va matallarni ba’zan muallif nutqida, ba’zan personajlar nutqida yumoristik ohang berish maqsadida qo’llyaydi. Said Ahmad eng qiyin, qayg’uli damlarda ham kulgining etagidan mahkam tutdi, hayot qiyinchiliklarini, ziddiyatlarini kulgi bilan yengdi. U yaratgan qahramonlarda ham shu fazilat mujassamlandi. Adibning maqol va hikmatli so’zlar orqali yaratgan kulgisi yaxshi kayfiyat, o’z kuchiga, qudratiga, haqiqat tantanasiga ishonch ruhini baxsh eta oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Said Ahmad. Uch tomlik.–T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyoti, 1981.-B.81
2. Said Ahmad. Kelinlar qo’zg’oloni. – Toshkent, 1976. – 32 b. ww.ziyouz.com kutubxonasi
3. A.Soatov. O’zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari. – Toshkent. 1990.-B.53
4. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shoraxmedov. Ma’nolar maxzani. – Toshkent. 2001.-B.67
5. Niyazova, M. Kh, and M. Temirova. "Semantic analysis of old english phraseological units." *Asian Journal of Multidimensional Research* 12.3 (2023): 35-39.
6. Khayotovna, Niyazova Mokhichekhra. "The Use of Riddles in the Speech of Characters in English and Uzbek Literature." *International Journal of Inclusive and Sustainable Education* 1.4 (2022): 60-65.
7. Niyazova, Mokhichekhra Khayotovna. "English And Uzbek Blessings Which Formed By The Belief Of Magic Words." *Scientific reports of Bukhara State University* 5.3 (2021): 72-79.

CHET TILI O'QITISH METODIKASINING YAQIN FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI VA UNING ASOSI

B.X.Norqulov, o'qituvchi, Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti, Denov

Annotatsiya. Ushbu maqola Denov Tadbirkorlik va Pedagogika institutining an'anaviy va tajriba guruhlarida ingliz adabiyotidan foydalangan holda bazaviy ijodiy usullar asosida ingliz tilini o'qitishni o'rganishga bag'ishlangan.

Ushbu mavzuni tanlashning sababi shundaki, men lingvistik jihatlar bilan bog'liq holda til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ingliz tilini o'qitish usullariga qiziqaman. Muhokama qilinayotgan maqola mavzusi stilistika, adabiyot va o'qitish metodikasi bilan chambarchas bog'liq.

Kalit so'zlar: Falsafa, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, neyropsixologiya, psixolingvistika, didaktika.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению преподавания английского языка на основе базовых творческих методов с использованием английской литературы в традиционных и экспериментальных группах Деновского института предпринимательства и педагогики.

Причина выбора этой темы заключается в том, что меня интересуют методы обучения английскому языку, направленные на развитие языковых навыков в связи с лингвистическими аспектами. Тема обсуждаемой статьи тесно связана со стилстикой, литературой и методикой преподавания.

Ключевые слова: Философия, педагогика, психология, лингвистика, нейропсихология, психоллингвистика, дидактика.

Abstract. This article is devoted to the study of English language teaching based on basic creative methods using English literature in traditional and experimental groups of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.

The reason for choosing this topic is that I am interested in English language teaching methods aimed at developing language skills in connection with linguistic aspects. The topic of the discussed article is closely related to stylistics, literature and teaching methodology.

Key words: Philosophy, pedagogy, psychology, linguistics, neuropsychology, psycholinguistics, didactics.

Chet tili o'qitish metodikasi bir qator fanlar : falsafa, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, ona tili va rus tillari o'qitish metodikalari kabi turli fanlar bilan aloqada bo'lib, ularga tayanadi va ular ko'magida metodikani ilmiy ishlab chiqadi. Chet tili o'qitish metodikasi pedagogikaning didaktika, tarbiya nazariyasi sohalariga, psixologiyaning pedagogik psixologiyasi, nutq psixologiyasi, yosh psixologiyasi, neyropsixologiya, tilshunoslikning esa sotsiolingvistika, statistik tilshunoslik, paralingvistika, matn lingvistikasi va psixolingvistika kabi sohalar bilan bevosita bog'liq.

Chet tili o'qitish metodikasi falsafa fani orqali o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantiradi. Yuqorida aytilgan fikrlarni hisobga olib metodika uchta fanga

- Lingvistika (tilshunoslik)
- Psixologiya
- Pedagogika (didaktika)ga asoslanadi.

Tilshunoslik yoki lingvistik tillarni u yoki bu kishilik jamiyatida qabul qilingan va muomala jarayonlarini amalga oshirish uchun bunday jamiyatlarga xizmat qiladigan ishoralar tizimlari sifatida o'rganadi. Keyingi paytlarda tilshunoslik o'zining yangi sohasi psixolingvistika bilan birga nutq faoliyatiga til belgilari yordamida ma'lumot uzatish va qabul qilish jarayoni sifatida e'tibor bera boshladi. Metodika esa tilni o'qitish, talabalarda nutqni rivojlantirish muammolari bilan shug'ullanadi, ya'ni tilshunoslik shug'ullanadigan hodisalarini tekshiradi. Bu bog'liqliklar yana shu bilan xarakterlanadiki, metodika tilshunoslikning asosiy tushuncha va qonuniyatlaridan foydalanib o'qitish ob'yektining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Tilshunoslik bilan metodika o'rtasida jiddiy aloqalar mavjudligi ana shu narsa bilan belgilanadi.